

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi  
№ B.60530700-2  
2024 yil "26" 06



06.

SITRUS VA SUBTROPIK O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
Ta'lif sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar  
Ta'lif yo'nalishi: 60530700 – Tuproqshunoslik

Termiz- 2024

Fan/modul kodi SO'YB404		O'quv yili 2024-2025	Semestr 7	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'uotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	<b>Sitrus va subtropik o'simliklarini yetishtirish agrotexnologiyasi</b>	60	60	120
<p><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p>Fanning maqsadi - fanning ahamiyati, soxaning kelib chiqish tarixi, xozirgi ahvoli va o'z navbatida sitrus meva ekinlarini morfologik tuzilishi, o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi, ularning turi va navlarining Respublika tumanlarida joylashtirish xamda xosilini ko'paytirish yo'llarini o'rgatish, ilmiy asosda agrotexnik tadbirlar qo'llash va jamiyatimiz isloxitida negizi bo'l mish bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish istiqbollariga qaratish.</p> <p>Fanining vazifasi-talabalarga "Sitrus o'simliklarni yetishtirish agrotexnologiyasi" "Sitrus ekinlarini yetishtirish texnologiyasi", "Sitrus ekinlarni standart navlarini o'rganish", "Sitrus ekinlar ko'chatzorini barpo qilish va ko'chat yetishtirish texnologiyasi" shunga o'xshash qator mevachilikka oid fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.</p> <p><b>Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar</b></p> <p>"Sitrus o'simliklarni yetishtirish agrotexnologiyasi" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Sitrus o'simliklariing ilmiy asosda rivojlanish tarixi;</li> <li>- sitrus mevalarni kimyoviy tarkibi va oziqali qiymatini;</li> <li>- sitrus ekinlari kelib chiqishi va ularni filogenezini;</li> <li>- sitrus ekinlarni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishda ularni biologik xususiyatlarini o'rni va ularni o'sish hamda rivojlanishi uchun qulay sharoitni yaratishni <b>haqida tessavurga ega bo'lishi</b>;</li> </ul>				
<ul style="list-style-type: none"> <li>- sitrus ekinlarni tuproq sharoitiga ko'ra joylashtirish, alamshlab ekish uslublarini mustaqil tuza bilishni;</li> <li>- sitrus ekinlarni ertagi, o'rtagi va kechki navlarini yetishtirish usullarini;</li> <li>- sitrus ekinlari navlarini bilish va ularni biologiyasiga ko'ra ekish muddatlari, usullari, ko'chatzorga urug'ini ekishga tayyorlash va uni sarfi, ekish chuqurligini o'rganishi;</li> <li>- ko'chatzorga ekilgan meva urug'larini maydonlarida qatqaloqqa qarshi kurashish choralar, mulchalash, qora sovuqqa qarshi kurashish choralarida to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi;</li> <li>- sitrus mevalar xayotini davomiyligi, xo'jalik va botanik belgilariga ko'ra guruhlashni;</li> <li>- Subtropik o'simliklarini sug'orish muddatlari, me'yorlari va usullarini o'rganish;</li> <li>- Subtropik o'simliklarini navlarini o'rganish;</li> <li>- sitrus ekinlar turlariga ko'ra hosilni yig'ib olish muddatlarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi</b>;</li> <li>- o'simliklarni tashqi belgilariga ko'ra rivojlanish bosqichlarini ajrata bilishni;</li> <li>- sitrus ekinlarni ekish zichligi va oziqlanish maydonini bilishi;</li> <li>- turli xildagi mineral, organik o'g'itlardan foydalanish muddatlarini va usullarini o'rganishi;</li> <li>- sitrus ekinlarini sug'orish usullari va muddatlarini bilishi;</li> </ul>				

- subtropik o'simliklari mintaqasi ekvatorial chizig'ining shimoliy va janubiy kengliklaridan o'tish graduslarini o'rganish;
- subtropik viloyatlar iqlimining mo'tadilligi;
- o'rtacha yillik xarorat, quruk va namli subtropiklarda yozgi va qishki xarorat, ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***
- Keng tarqalgan va katta maydonlarda ekiladigan subtropik o'simliklari o'zlashtirishni;
- yig'ilgan hosilga birlamchi ishlov berish kabi ishlarini;
- o'z fikr-muloxaza va xulosalarini asosli tarzda aniq bayon eta olish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

## **II. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Mazkur fan o'quv rejasidagi sitrus ekinlari biologiyasi, selektsiyasi va fundamental fanlardan: botanika, o'simliklar fiziologiyasi, genetika hamda umumagronomik fanlardan: tuproqshunoslik, agrokimyo, dehqonchilik, melioratsiya, qishloq xo'jaligi mashina va mexanizmlaridan foydalanish, entomologiya, fitopatologiya, o'simliklarni kimyoviy va biologik usullarda muhofaza qilish, meva mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash fanlarining umumiyy nazariyasini chuqr o'zlashtirishda ko'rik vazifasini o'taydi.

### **Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni**

Mevachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarida sitrus mevalar yetishtirishni ilg'or agrotexnologiyalarini tadbiq qilishni to'g'ri tashkil qilish yo'llari hamda usullarini o'rganishda qishloq xo'jalik sohasini muhim qismini tashkil etadi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning Sitrus o'simliklarni yetishtirish agrotexnologiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda sitruschilikda ishlatiladigan mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va jonli mevalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

## **III. ASOSIY QISM**

### **Ma'ruza mashg'ulotlari**

#### **1-mavzu: Kirish, Sitrus o'simliklarining kelib chiqishi, tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi va boshqa rivojlangan mamlakatlarda sitrus ekinlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Sitrus o'simliklarni sanoat darajasida yetishtiriladigan tumanlari. Sitrus o'simliklarining shifobaxsh xususiyatlari. Respublikamizda sitrus o'simliklarni yetishtirishning ahvoli.

#### **2-mavzu: Sitrus o'simliklari uchun yer tanlash, yerni ekishga tayyorlash, ekish va sug'orish**

Sitrus o'simliklarni ekish uchun yerlarning tanlanishi. Yosh va hosilga kirgan bog'larni parvarish qilish. Sitrus o'simliklarni o'g'itlash.

#### **3-mavzu: Sitrus o'simliklarini ko'paytirish va ko'chatlarni tayyorlash.**

Sitrus o'simliklarini urug'idan ko'paytirish. Sitrus o'simliklarini vegetativ yo'l bilan ko'paytirish. Sitrus o'simliklarini payvandlab ko'paytirish.

**4-mavzu: Sitrus o'simliklarining morfologiysi mevasining tuzilishi va tarkibi**

Sitrus o'simliklarining ildizi. Sitrus o'simliklarining tana va tartib shoxlari tuzilishi. Sitrus o'simliklarining bargi, kurtagi va meva tuzilishi

**5-mavzu: Sitrus o'simliklarining iqlim o'zgarishiga ta'sirchanligi**

Analitik selektsiya haqida. Sintetik selektsiya haqida Sitrus o'simliklarining tana va tartib shoxlari tuzilish. Sitrus o'simliklarini noqulay ob-havo sharoitlaridan parvarishlash. Sovuqdan saqlashda kompleks o'g'itlarning ta'siri.

**6-mavzu: Sitrus o'simliklarining biologik xususiyatlari**

Sitrus o'simliklarining biologik xususiyatlari. Sitrus o'simliklarining foydali haroratlar yig'indisiga talabi. Sitrus o'simliklarining o'sish davriyligi, muddati, kerakli sharoit yaratish.

**7-mavzu: Sitrus o'simliklarini issiqxonalarda o'stirish**

Sitrus o'simliklarini issiqxonalarda o'stirish. Issiqxonalarning turli usullari. Issiqxonalarning yopilish va ochilish muddatlari

**8-mavzu: Subtropik o'simliklari haqida umumiy tushunchalar**

Subtroplik o'simliklari mintaqalari, iqlimi, yillik harorati. Xurmoning turlari haqida. Xurmoning O'zbekistonda tarqalishi.

**9-mavzu: Subtropik o'simliklarining oilasi, turlari, yashash va hosil berish davrlari**

Subtropik o'simliklarning dunyoda keng tarqalgan turlari. Anor, anjir, xurmo va chilonjiyda o'simliklarining kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish choralar.

**10-mavzu: Subtropik o'simliklari turlarining kelib chiqishi va tarqalishi**

Subtropik o'simliklarining kelib chiqishi, Subtropik o'simliklari orasida eng ko'p tarqalgan turlari. Iqlimi, geografik joylashuvi.

**11-mavzu: Subtropik o'simliklarining morfologik tuzilishi va biologik xususiyatlari.**

Morfologik tuzilishi, biologik xususiyatlari, Kurtak yozish va gullashi. Subtropik daraxtlarining o'sish va rivojlanish davrlari. Subtropik o'simliklarining ildizlari

**12-mavzu: Subtropik o'simliklari uchun yer tanlash, yerni ekishga tayyorlash, ekish, yosh va xosilga kirgan bog'larni parvarish qilish.**

Yosh va hosilga kirgan bog'larni parvarish qilish. Subtropik o'simliklarini o'g'itlash. Subtropik o'simliklarini ekish uchun yerlarning tanlanishi.

**13-mavzu: Subtropik o'simliklarini o'g'itlash va sug'orish.**

O'g'itlash me'yori. O'g'itlash muddati. Sug'orish muddatlari, me'yorlari va usullari. Sug'orish muddati. Sug'orish me'yori. Egat olib sug'orish. Uyalab, halqasimon usulda sug'orish. Pol olib sug'orish. Tomchilatib sug'orish.

**14-mavzu: Subtropik o'simliklarining navlari.**

Anor navlari. Respublikamizdag'i anorning navlari to'g'risidagi ma'lumotlar. Respublikamizdag'i anjir va xurmoning navlari haqida.

**15-mavzu: Subtropik o'simliklarini ko'paytirish va xurmoni payvandlash texnikasi.**

Subtropik o'simliklarini ko'paytirish. Xurmoni payvandlash texnikasi. Payvandlash uchun asbob va uskunalari. Payvandlash usullari. Kurtak payvandlash texnikasi.

**IV. Amaliy mashg'uotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg'uotlar kasbiy tayyorgarlikning muhim bosqichi va shuning uchun ham uni zamon talabiga mos ravishda o'tkazish zarur. Amaliy mashg'ulot talabandan tuproq genezisi fanidan olag nazariy bilimlarini amaliy tarzda mustahkamlashi, chuqurlashtirilishi va umumlashtirishi hamda talabaning mustaqil fikrlash, voqelikni tahlil qila olish talab qilinadi, hamda quyidagi mavzular atavsiya etiladi.

**Amaliy mashg'uotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**

1. Sitrus o'simliklarining kelib chiqishi, tarqalishi va dorivorlik xususiyatlarini o'rGANISH

2. Sitrus o'simliklari uchun yer tanlash, yerni ekishga tayyorlash, ekish va sug'orishni o'rganish
3. Sitrus o'simliklarini ko'paytirish va ko'chatlarni tayyorlash, payvandlab ko'paytirishni o'rganish
4. Sitrus o'simliklarining morfologiyasi, mevasining tuzilishi va tarkibi. Sitrus o'simliklarining biologik xususiyatlarini o'rganish
5. Sitrus o'simliklarini issiqxonalarda va xandaklarda yetishtirish texnologiyasi, sitrus o'simliklarini ayozli sovuqdan himoyalashni o'rganish
6. Sitrus o'simliklarini oziqlantirish. Sitrus o'simliklariga bir mavsumda beriladigan elementlar me'yori va zamonaviy oziqlantirish usulini o'rganish
7. Sitrus o'simliklarining keng tarqalgan madaniy turlari – limon, mandarin apelsin, greypfrut navlarini o'rganish
8. Subtropik o'simliklari xaqida umumiyl tushunchalar, oilasi, turlari, yashash va xosil berish davrlarini o'rganish
9. Subtropik o'simliklari turlarining kelib chiqishi, tarqalishi va ularning morfologik tuzilishi, biologik xususiyatlarini o'rganish
10. Subtropik o'simliklari uchun yer tanlash, yerni ekishga tayyorlash, ekish, yosh va xosilga kirgan bog'larni parvarish qilishni o'rganish
11. Subtropik o'simliklarini o'g'itlash, me'yori, muddati xamda o'g'itlash me'yorini sof modda xisobida aniqlashni o'rganish
12. Subtropik o'simliklarini navlarini o'rganish
13. Subtropik o'simliklarini ko'paytirish va xurmoni payvandlash texnikasini o'rganish
14. Subtropik o'simliklariga shakl berish va butashni o'rganish
15. Choy, lavr o'simliklari va ularning tarqalishi, axamiyati, morfologiyasi va biologiyasini o'rganish

## **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

### **Mustaqil ishini tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- navlarni tasnifini beruvchi Davlat reestrlari bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va agrotexnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va mumammoli o'qitish uslubidan foydalilaniladigan o'quv mashg'ulotlari; masofaviy (distantion) ta'lim.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

1. Sitrus o'simliklar haqida umumiyl tushunchalar. Sitrus o'simliklarni hozirgi ahvoli va rivojlanirish istiqbollari
2. Sitrus o'simliklarini ko'paytirish va ko'chatlarni tayyorlash.
3. Limon o'simligini yetishtirish texnologiyasi
4. Apelsin o'simligini yetishtirish texnologiyasi
5. Mandarin o'simligini yetishtirish texnologiyasi.
6. Limon, apelsin va mandarin ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi
7. Sitrus o'simliklarni tranvdeyalarda yetishtirish texnologiyasi

	<p>8. Subtropik o'simliklari haqida umumiy tushunchalar</p> <p>9. Subtropik o'simliklarining oilasi, turlari, yashash va hosil berish davrlari</p> <p>10. Subtropik o'simliklari turlarining kelib chiqishi va tarqalishi</p> <p>11. Subtropik o'simliklarining morfologik tuzilishi va biologik xususiyatlari</p> <p>12. Subtropik o'simliklari uchun yer tanlash, yerni ekishga tayyorlash, ekish, yosh va xosilga kirgan bog'larni parvarish qilish</p> <p>13. Subtropik o'simliklarini o'g'itlash va sug'orish.</p> <p>14. Subtropik o'simliklarining navlari.</p> <p>15. Subtropik o'simliklarini ko'paytirish va xurmoni payvandlash texnikasi</p> <p>16. Subtropik o'simliklariga shakl berish va butash.</p> <p>17. Anor va anjirni yetishtirish texnologiyasi.</p> <p>18. Anorni ekish uchun joy tanlash.</p> <p>19. Yosh anorzlarni parvarish qilish.</p> <p>20. Anor ko'chatini ko'paytirish usullari.</p> <p>21. Anjirni ekish uchun joy tanlash</p> <p>22. Subtropik o'simliklari haqida umumiy tushunchalar.</p> <p>23. Subtropik o'simliklarining kelib chiqishi</p> <p>24. Subtropik o'simliklari orasida eng ko'p tarqalgan turlari</p> <p>25. Sitrus o'simliklarining tana va tartib shoxlari tuzilishi</p> <p>26. Sitrus o'simliklarining bargi, kurtagi va meva tuzilishi.</p> <p>27. Sitrus o'simliklarining biologik xususiyatlari.</p> <p>28. Sitrus o'simliklarining foydali haroratlar yig'indisiga talabi.</p> <p>29. Sitrus o'simliklarining o'sish davriyligi, muddati, kerakli sharoit yaratish</p> <p>30. Avokado, choy, lavr o'simliklari haqida ularning kelib chiqishi va tarqalishi</p>
--	---

## **VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Saidov M., Zokirov X. Sitrus o'simliklarini yetishtirish agrotexno-logiyasi (Monografiya) "Surxon nashr", Termiz, 2020 y.
2. Fahriddinov N.Z. Sitrus o'simliklar yashil qalamchalarini turli muddatlarda ildiz olishi. Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy asarlar to'plami Toshkent, 1993
3. Gulyamov B.X., Islomov S.Ya., Normurodov I.T., Sitrus ekinlarini yetishtirish texnologiyasi Toshkent 2018.
4. Fahriddinov M.Z. Limonchilikning o'ziga xos sinoatlari "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2014.
5. Mirzaev M.M., Sobirov M.K. Bog'dorchilik. T.; 1987. O'quv qo'llanma.
6. Boyqo'ziev R., Hoshimov N., Limon – keltirar million "Dizayn-Press" MChJ nashriyoti Toshkent 2011
7. Данков В – Субтропические культуры, Санк-Петербург, 2000 г
8. Aripov A, Abrorov Sh, Bekjonov U, Djalalov S – Xurmo yetishtrish texnologiyasi, Toshkent, "sharq" 2013 6.5 – 120
9. Mirzayev M.M, Sobirov M.K – Bog'dorchilik Toshkent 1987
10. Rajametov Sh.Normurodov va boshqalar – Meva, rezavor meva va tok ko'chatlarini tashkil etish, Toshkent "Baktria press " 2018 y
11. Axmedjonov J.Narziyeva va boshqalar – Unabi navlari ko'chatlarini taylorlash toshkent, Agro ilm Uzbekistan qishloq xujaligi maxsus son , 25.10.2014
12. Sobirov M.K, - Tomorqa bog'dorchiligi, Toshkent, "Mexnat " 1991 y
13. Pashchenko V.Z, Pashchenko K.V – Bog' va tokzor zararkunandalariga qarshi kurash choralar, Toshkent "O'zbekiston" 1976
14. Xasanov B.A. Mevali va yong'oq mevali daraxtlar, sitrus, rezavor mevali

	<p>butalar hamda tok kasallakkleri va ularga qarshi kurash. Toshkent 2010 info udec.ru</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017.</p> <p>16. Mirziyoyev Sh.M. "Limonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Qaror, Toshkent. 2020 yil, 19 fevral.</p> <p><b>Internet saytlari</b></p> <p>17. <a href="http://www.lib.tersu.uz">www.lib.tersu.uz</a></p> <p>18. www.lex.uz-O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>19. www.twirpx.com</p> <p>20. www.scholarsea google.com</p> <p>21. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></p>
	Mazkur fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 26-iyundagi 11-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.
	<p><b>Fan/modul uchun ma'sollar:</b></p> <p>M.B.Abramatov - TerDU, "Ekologiya va tuproqshunoslik" kafedrasi mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent</p> <p>Saidov Muxamadi - TerDU, "Ekologiya va tuproqshunoslik" kafedrasi, dotsenti</p> <p>Zayirova Donaxol- TerDU, "Ekologiya va tuproqshunoslik" kafedrasi,o'qituvchisi</p>
	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>S.Ishimov – Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti katta o'qituvchisi, q.x.f.n.</p>

